

№	MUNDARIJA	Page
1.	<i>YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOIY HIMOYALASHNING MOLIYAVIY ZARURLIGI VA AHAMIYATI</i> <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	3
2.	<i>ПРИМЕНЕНИЕ МСФО 17 В СТРАХОВОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКИСТАНА: ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ И ПОТЕНЦИАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ. АНАЛИЗ РЕЗЕРВОВ И ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ БАРЬЕРОВ</i> <i>Баратова Динора Алишеровна</i>	6
3.	<i>SUG'URTA POLISINI TANLASHDAGI MUAMMO VA AFZALLIKLAR</i> <i>Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	10
4.	<i>O'ZBEKİSTONDA "YASHİL SUG'URTA" MAHSULOTLARINI JORİY ETİSH MASALALARI</i> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	13
5.	<i>SUG'URTA TASHKILOTLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	16
6.	<i>O'ZBEKİSTONDA AVTOMOBİL TRANSPORT SUG'URTASINI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	18
7.	<i>O'ZBEKİSTONDA AVTOTRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI</i> <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna, Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	20
8.	<i>O'ZBEKİSTONDA SUG'URTA TIZIMI VA UNDAGI XAVFLAR</i> <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi, Akbaraliyeva Diyora</i>	22
9.	<i>ПЕРСПЕКТИВЫ И БАРЬЕРЫ РАЗВИТИЯ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ (ТАКАФУЛ) В УЗБЕКИСТАНЕ</i> <i>Мурадова Дилдора Абдусалимовна</i>	26
10.	<i>YASHİL SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI: ILMİY-NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV</i> <i>Erkaboev Yorbek Boirbekovich</i>	31
11.	<i>MILLIY SUG'URTA BOZORIDA INFORMATSION RISKLARNI SUG'URTALASHNI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Xolbaev Azamat Yuldashevich</i>	34
12.	<i>ПРЕИМУЩЕСТВА СТРАХОВАНИЕ И ЕГО РОЛЬ В ЭКОНОМИКЕ</i> <i>Умарова Хуришида Олимжоновна</i>	38
13.	<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASH: HOMİYLIK MABLĞLAG'LARIDAN FOYDALANISH</i> <i>Dildora Bohodirovna Abdusattarova</i>	42
14.	<i>SUVEREN KREDIT REYTING AGENTLIKLARINING BAHOLASH METODOLOGIYASIDAGI KAMCHILIKLARI TAHLILI</i> <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	45
15.	<i>ЗЕЛЁНЫЕ ОБЛИГАЦИИ И КРЕДИТЫ: НОВЫЙ ВЕКТОР УСТОЙЧИВОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА</i> <i>Гульмухамедова Дилбар Баҳтиер кизи, Каримов Комилжон Хамидович</i>	48
16.	<i>ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ПУТЬ К УСТОЙЧИВОМУ РАЗВИТИЮ СТРАНЫ</i> <i>Гульмухамедова Дилбар Баҳтиер кизи</i>	51
17.	<i>ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕСТРАХОВАНИЯ И НИЗКОЙ КАПИТАЛИЗАЦИИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА</i> <i>Муминова Ансара Улугбек кизи</i>	54
18.	<i>БАНК СЕКТОРИДА ФИРИБГАРЛИККА ҚАРШИ КУРАШИШДА СУНЬЙИ ИНТЕЛЛЕКТНИНГ ЎРНИ</i> <i>Козоқов Шахбоз Ортиқбаевич</i>	57
19.	<i>ЗЕЛЁНЫЕ ОБЛИГАЦИИ И КРЕДИТЫ: НОВЫЙ ВЕКТОР УСТОЙЧИВОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА</i> <i>Гульмухамедова Дилбар Баҳтиер кизи, Каримов Комилжон Хамидович</i>	61
20.	<i>SUKUKLARNI JAHON AMALIYOTIDAGA O'RNI TAHLILI</i> <i>Shoxbozbek Adxamjonov Bobirjon o'g'li</i>	64
21.	<i>АҲОЛИ ДАРОМАДЛАРИ ТАРКИБИ ВА ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ АМАЛДАГИ ҲОЛАТИНИИ ТАҲЛИЛИ</i> <i>Хожсиеев Жаҳонғир Душабаевич</i>	67
22.	<i>MINTAQALARNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	71
23.	<i>O'ZBEKİSTONDA MAJBURIY SUG'URTA TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH ZARURATI: MUAMMOLAR, TAHLİL VA STRATEGİK TAKLIFLAR (2020–2024 YILLAR TAJRIBASI ASOSIDA)</i> <i>Yuldashev Akramjon Qurbonazarovich, To'rayev Sherxon Mo'min o'g'li</i>	86

“O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

1. Teshabayev To'lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo'jayevich (Kengash raisi o'rinnbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o'rinnbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich ("O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi" AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishslash markazi rahbari, dots.).
10. Quldashev Qamariddin Mansurovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Moliya" kafedrasni mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.)
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A'zamjonovich ("Kafil Sug'urta" AK sug'urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O'zbekiston madaniyat va san'at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullahayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU "Moliya bozori va sug'urta" kafedrasni mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasni professori, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G'iyozovich (TDIU Magistratura bo'yicha dekan o'rinnbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU "Yashil iqtisodiyot" kafedrasni professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU "Sug'urta" kafedrasni professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU "Marketing" kafedrasni dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU "Sug'urta" kafedrasni dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo'latovich (TDIU "Sug'urta" kafedrasni dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o'g'li (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni dotsenti, i.f.n.).



O'ZBEKISTONDA MAJBURIY SUG'URTA TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH ZARURATI: MUAMMOLAR, TAHLIL VA STRATEGIK TAKLIFLAR (2020–2024 YILLAR TAJRIBASI ASOSIDA)

Yuldashev Akramjon Qurbonazarovich

"MY INSURANCE" AJ ST Bosh direktori,

Toshkent xalqaro Kimyo universiteti mustaqil tadqiqotchisi

To'rayerov Sherxon Mo'min o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiya magistranti

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss3/312

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda majburiy sug'urta xizmatlari bozorining 2020–2024 yillar oraliq'idagi rivojlanish dinamikasi, institutsional muammolari va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida majburiy sug'urta turlarining past qamrov darajasi, tariflarning iqtisodiy real vogelikdan orqada ekani, raqamlashtirish va da'vo ko'rib chiqish tizimining zaifligi aniqlangan. Mualliflar tomonidan tizim samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik yo'nashlar, jumladan, tarif siyosatini qayta ko'rib chiqish, yagona elektron da'vo platformasi yaratish, sug'urta madaniyatini shakllantirish va raqobat muhitini kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Majburiy sug'urta, sug'urta bozori, OSAGO, fuqarolik javobgarligi, zararlilik koefitsienti, tarif siyosati, raqamlashtirish, ishonch, iqtisodiy samaradorlik, da'vo tizimi.

Abstract: This article analyzes the dynamics of development, institutional problems and economic efficiency of the compulsory insurance services market in Uzbekistan for the period 2020-2024. Based on the results of the study, it was revealed that there is a low level of coverage of compulsory insurance types, tariffs lag behind economic realities, and the weakness of the digitalization and claims processing system. The authors have developed strategic directions aimed at increasing the efficiency of the system, including revising the tariff policy, creating a single electronic claims platform, forming an insurance culture and expanding the competitive environment.

Keywords: Compulsory insurance, insurance market, OSAGO, civil liability, damage coefficient, tariff policy, digitalization, trust, economic efficiency, claim system.

Абстрактный: В данной статье анализируется динамика развития, институциональные проблемы и экономическая эффективность рынка услуг обязательного страхования в Узбекистане за период 2020-2024 гг. По результатам исследования выявлено, что наблюдается низкий уровень охвата обязательными видами страхования, отставание тарифов от экономических реалий, слабость системы цифровизации и обработки претензий. Авторами разработаны стратегические направления, направленные на повышение эффективности системы, в том числе пересмотр тарифной политики, создание единой электронной платформы претензий, формирование страховой культуры и расширение конкурентной среды.

Ключевые слова: Обязательное страхование, страховой рынок, ОСАГО, гражданская ответственность, коэффициент ущерба, тарифная политика, цифровизация, доверие, экономическая эффективность, претензионная система.

Kirish

Bugungi globallashuv va iqtisodiy liberallashuv sharoitida moliyaviy xavflarni boshqarish, fuqarolar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning manfaatlarni himoya qilishda sug'urta bozori alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, majburiy sug'urta xizmatlari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda, fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mol-mulkini himoyalashda asosiy vositalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

O'zbekistonda majburiy sug'urta tizimi shakllanish bosqichidan rivojlanish bosqichiga o'tmoqda. Mamlakatda ilk bor majburiy sug'urta tizimi 2008 yildagi 156-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan transport vositasi egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'ortalash (TVEFJMS) tizimi yo'lga qo'yilgan va hozirgacha amal qilib kelmoqda. Ammo so'nggi yillarda ushbu bozor segmentida qator tizimli muammolar, jumladan sug'urta mukofotlari yetarli emasligi, to'lov intizomi pastligi, da'volar ko'rib chiqilishida shaffoflik yetishmasligi, aholining sug'urtaga nisbatan ishonchi pastligi kabi muammolar kuzatilmoxda.

Bundan tashqari, boshqa majburiy sug'urta turlari — masalan, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'ortalash, tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'ortalash tizimlari ham samarali ishlamayapti. Ushbu turlar bo'yicha sug'ortalash qamrovi niyoyatda past. Asosiy sabab sifatida esa mazkur sug'urta turlarining ustidani samarali va doimiy nazorat mexanizmlari yo'lga qo'yilmaganini

ko'rish mumkin. Nazorat organlari tomonidan real monitoring va ma'muriy javobgarlik choralarining sustligi, statistik hisobotlarning noaniqligi hamda raqamli integratsiya darajasining pastligi bu sohada islohotlarni sekinlashtiruvchi omillar bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, normativ-huquqiy banazining zamonaliviy talablarga moslashtirilmagani, sug'urta kompaniyalari o'rtasida raqobatning sun'iy tarzda cheklanganligi, moliyaviy barqarorlikning sustligi va inson omilining yuqoriligi ham mavjud muammollardandir. Eng muhim, aholining sug'urta madaniyatni yetarlicha shakllanmaganligi, hamda majburiy sug'urta tizimining jamiyatda ijtimoiy zarus vosita sifatida emas, balki majburiy byurokratik talab sifatida qabul qilinishi bu bozor segmentining to'laqonli ishlashiga to'sqinlik qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, O'zbekistonda majburiy sug'urta xizmatlari bozorining hozirgi holatini chuqur o'rganish, mavjud kamchiliklar va imkoniyatlarni aniqlash, shuningdek, tizim samaradorligini baholash dolzarb ilmiy va amaliv vazifalardan biridir.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston Respublikasida 2020–2025 yillar oraliq'ida majburiy sug'urta xizmatlari bozorining rivojlanish holatini tahlil qilish va uning samaradorligini baholash asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti — O'zbekiston Respublikasida majburiy sug'urta xizmatlari bozori, xususan, transport vositasi egalarining fuqarolik javobgarligini sug'ortalash tizimi faoliyati.

Tadqiqot predmeti – majburiy sug'urta xizmatlarining institutsional tuzilmasi, tartibga solish mexanizmlari, xorij tajribalari, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari hamda bozordagi ishtirokchilar o'rta-sidagi munosabatlar.

Tadqiqot metodologiyasi (Методология/Methodology). – ilmiy maqolani yozishda tahliliy, solishtirma va statistik uslublar qo'llanildi. Bozor hajmi, sug'urta mukofotlari, to'langan sug'urta summalar, qamrov darajasi kabi ko'rsatkichlар asosida trend tahlillari va grafik vizualizatsiyalar amalga oshirildi. Shuningdek, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat statistikasi va ilg'or xorijiy tajribalar o'rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi – birinchidan, O'zbekistonda majburiy sug'urta xizmatlari bozorining 2020–2025 yillardagi rivojilanish dinamikasi tizimli statistik asosda tahlil qilinmoqda; ikkinchidan, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan; uchinchidan, soha samaradorligini baholash uchun muqobil indikatorlar asosida baholash modeli ishlab chiqilgan.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы / Literature review).

O'zbekistonda sug'urta xizmatlari, xususan majburiy sug'urtaning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini yoritishga qaratilgan bir qator ilmiy va amaliy ishlar mavjud. Kurbonov S. A. (2023) o'z tadqiqotida O'zbekiston sug'urta bozorining makroiqtiyodiy ko'rsatkichlari, strukturaviy o'zgarishlari va majburiy sug'urtaning bozor rivojiga ta'sirini keng yoritgan. U majburiy sug'urta turlarining, jumladan OSAGO va OSGOR'ning, dastlabki yillarda mukofot tushumlarining asosiy manbasi bo'lganini qayd etadi. So'nggi yillarda esa o'sish ko'proq iqtisodiy liberalashuv va investitsiyalarning faollashuvi hisobiga yuz bergani ko'rsatiladi.

Shuningdek, Kucharov Murod Baxtiyarovichning "O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING 2016-2023-YILLAR DAVOMIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI" nomli maqolasida majburiy sug'urtaning normativ-huquqiy bazasi kuchaytirilgani, ustav kapitali talablari oshirilgani shuningdek, majburiy sug'urta sohasining to'liq raqamlashtirilgani va tender asosida davlat buyurtmalar uchun ochiq raqobat muhitini yaratilganini alohida ta'kidlaydi. Ayniqsa, majburiy sug'urta turlar orqali aholining sug'urta madaniyatini shakllantirish hamda sug'urta xizmatlarining qamrovini kengaytirish yo'lidagi davlat siyosati samaradorlikka erishishing eng maqbul yo'li sifatida qayd etadi. Maqolada aytishishga, ilg'or xorijiy tajriba asosida majburiy sug'urta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmat sifatida qaralmoqda hamda keyinchalik ushbu turlar ixtiyoriy shaklga o'tkazilishi orqali fuqarolarda ongi ishtirokchanlikni kuchaytirishga xizmat qilishi ko'nda tutilgani etirof etiladi. Biroq, muallif yondashuvida ayrim jihatlar chuqurroq tahlilga muhtoj. Xususan, ochiq tender mexanizmlariga qaramay, majburiy sug'urta bozorida yirik kompaniyalar ustunligi saqlanib qolayotgani holati yuzasidan tanqidiy fikrlar yetishmaydi. Aholining sug'urta madaniyatini oshirishda majburiy sug'urtaning haqiqiy ta'siri, fuqarolar ishonchi yoki amaliy tajribalarga oid empirik dalillar ko'rsatilmagan. Umuman, maqola faktlarga boy bo'lsa-da, majburiy sug'urtaning ijtimoiy qamrovi va psixologik jihatlar shuningdek, mavjud ishlarda raqamli texnologiyalar, innovatsion salohiyat yoki ishonch indikatorlari asosida samaradorlikni baholash mexanizmlari bo'yicha chuqurroq tahlil qilish uchun zamin yaratadi.

Xorij tajribasi va ilg'or amaliyotlarining adabiyotlar tahlili – bu sarlavxa olib tashlanadi

Anna L. Polina-Stashevskayaning Rossiya sug'urta tizimi, xususan OSAGO bozoriga oid tadqiqotida majburiy sug'urtaning raqamli transformatsiya sharoitidagi huquqiy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Muallif sug'urta nizolarida elektron hujjalarning daliliy kuchi, shuningdek onlayn shartnomalar tuzish va markazlashtirilgan da'vo bazasining samaradorligini yoritgan. Tadqiqotda Rossiya OSAGO tizimi 2003-yildan buyon amal qilayotgani, davlat tomonidan narxlar chegaralanishimi tez-tez yangilab turilishi va axborot shaffofligi ahoring sug'urtaga bo'lgan ishonchini hamda sog'lom raqobat muhitini buzilmasligini ta'minlab turishini belgilab berishini ko'rish mumkin.

Majburiy sug'urta bozorining raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy tajribalar, ayniqsa reguliyativ sandboxlar (regulyativ sandbox – bu yangi moliyaviy xizmatlar va texnologiyalarni cheklangan sharoitda, reguliyator nazorati ostida sinab ko'rish imkonini beruvchi maxsus huquqiy muhit), raqamlashtirilgan da'vo tizimlari va insurtech innovatsiyalar orqali raqobatda sun'iy cheklovlarini bartaraf etish mexanizmlari dolzlar hisoblanadi.

OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) 2020-yil hisobotida reguliyatorlar tomonidan joriy etilgan reguliyativ sandbox mexanizmi yangi ishtirokchilarning moliyaviy bozorga, jumladan sug'urta kirishini yengillashtirishi ta'kidlanadi. Bu yondashuv majburiy sug'urta faoliyati bilan shug'ullanmaydigan kompaniyalarga sinov va imkoniyat muhitini yaratib, raqobatni oshirish imkonini beradi.

OECD (2017) hisobotida insurtech platformalar orqali bozorga kirish xarajatlari kamayib, raqobatni cheklovchi strukturalar yemirilayotgani qayd etiladi. Sun'iy intellekt, blokcheyn va mobil ilovalar orqali sug'urtaning ijtimoiy qamrovi kengayadi.

Du & Ellis (2024) o'z maqolalari tahlilida sug'urta bozoridagi kapital talablarining balandligi, murakkab litsenziyalash tartibotlari va dominant kompaniyalar hukmronligi yangi ishtirokchilar kirishini cheklab qo'yayotgani aytildi. Yondashuv sifatida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan oddiyashtirilgan tartiblar taklif etiladi.

Nazariy yondashuvlar:

Sug'urta xizmatlarini samarali tashkil etishda bir nechta iqtisodiy nazariyalar asosiy metodologik poydevor vazifasini bajaradi. Ulardan biri bu — K. Arrow tomonidan ishlab chiqilgan axborot assimetriyasi nazariyasi bo'lib, unga ko'ra sug'urta munosabatlarida xizmat ko'rsatuvchi va iste'molchi o'rtasida to'liq axborot tengligi mavjud emas. Bu esa, ayniqsa, majburiy sug'urtaning ishonchlikka asoslangan modelida samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiy xavf nazariyasi (risk management theory) doirasida sug'urtaning asosiy vazifasi – tavakkalchiliklarni taqsimlash va moliyaviy zararni minimallashtirishdir. Bu nuqtai nazardan qaralganda, majburiy sug'urta tizimida aholining xabardorlik darajasi, ishonch, shartnoma shartlarining tushunariligi va to'lov intizomi asosiy rol o'ynaydi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Ushbu bo'limda O'zbekistonda majburiy sug'urta xizmatlari bozorining 2020-2024 yillardagi oralig'i o'zgarib borish dinamikasi tahlil qilinadi. Tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, Sobiq Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi ma'lumotlari, Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari hamda ochiq manbalardagi ko'rsatkichlar asos qilib olindi.

Tahlil jarayonida sug'urta mukofotlari va to'lovlar hajmi, qamrov darajasi hamda to'lov/mukofot nisbatining yillik o'zgarishiga alohida e'tibor qaratildi.

Jadval 1. 2020-2024 yillarda majburiy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta mukofotlarining ko'rsatkichlari (mlrd so'mda).⁷

Yil	TVE FJMS ⁸	Ish beruvchining FJMS ⁹	Tashuvchining FJMS ¹⁰	Boshqa turdag'i majburiy sug'urta turlari	Umumiy mukofotlar
2020	159,8	94,7	7,1	51,7	313,3
2021	175,4	125,0	6,3	54,3	360,9
2022	229,1	183,5	4,0	96,4	518
2023	262,2	256,3	3,8	115,7	668,1
2024	311,3	296,7	2,7	102,1	712,9

Ushbu jadvalda bo'lib qolmoqda.

TEVFJMS – Majburiy sug'urta bozorining eng yirik segmenti sifatida saqlanmoqda, 2020-yildagi 159,8 mlrd so'mdan 2024-yilda 311,3 mlrd so'mga oshib, 95% o'sishni tashkil etgan. Bu bozor talabining transport vositalari soni bilan o'sayotganidan va doimiy nazorat tizimi ishlayotganidan shuningdek, ushbu sug'urta mahsulotini xarid qilish to'liq raqamlashtirilganidan dalolat beradi.

Ish beruvchining FJMS eng tez o'sayotgan segmentlardan biri bo'lib, 2020-yildagi 94,7 mlrd so'mdan 2024-yilda 296,7 mlrd so'mga yetgan – bu 213% o'sishdir. Biroq ushbu sug'urta mahsuloti, milliy sug'urta bozorning atiga 7,2%ini qamrab olgan hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, bu yo'nalish bo'yicha bozorda bo'sh maydon juda ham ko'p. Bu bizga mazkur sug'urta turlarining ustidan samarali va doimiy nazorat mexanizmlari yo'lga qo'yilmaganini ko'risatib beradi. Nazorat organlari tomonidan real monitoring va ma'muriy javobgarlik choralarining sustligi, statistik hisobtlarning noaniqligi hamda raqamli integratsiya darajasining pastligi bu sohada islohotlarni sekinlashtiruvchi omillar bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, Tashuvchining FJMS mukofotlari kamaymoqda (7,1 mlrd → 2,7 mlrd) – bu ayni paytdagi bozor qamrovining 8,6%ini tashkil etadi. Bu sohadagi qamrovning pasayganini, tariflarning real xarajatlarni qoplamasligini yoki nazoratning yetishmasligini ko'rsatadi.

Boshqa turlar umumiy hajmda sezilarli o'sishga erishgan bo'lsa-da (2020-yilda 51,7 mlrd so'm → 2023-yilda 115,7 mlrd so'm), 2024-yilda 102,1 mlrd so'mga qisqargan.

Jadval 2. 2020-2024 yillarda majburiy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta qoplamalarining ko'rsatkichlari (mlrd so'mda)¹⁸.

Yil	TVEFJMS ¹	Ish beruvchining FJMS ²	Tashuvchining FJMS ²	Boshqa turdag'i majburiy sug'urta turlari	Umumiy to'lovlar
2020	43,4	45,5	0,2	5,3	94,5
2021	118,5	64,7	0,2	7,6	191,0
2022	158,7	74,4	0,1	8,9	242,1
2023	155,9	85,5	0,2	7,7	239,3
2024	223,5	145,3	-	4,6	373,3

Sug'urta to'lovlar va zararlilik darajasi bo'yicha tahsil (2020–2024)

1. Majburiy sug'urta turlari bo'yicha umumiy tendentsiya, 2020–2024 yillar davomida majburiy sug'urta to'lovlar umumiy hajmi 94,5 mlrd so'mdan 373,3 mlrd so'mga oshgan bo'lib, bu qariyb 4 baravar ko'rsatkichni tashkil etadi. Ayniqsa:

TVEFJMS (OSAGO) bo'yicha to'lovlar 43,4 mlrd so'mdan 223,5 mlrd so'mga oshgan (5,1 barobar),

Ish beruvchining FJMS – 45,5 dan 145,3 mlrd so'mga oshgan (3,2 barobar),

Tashuvchining FJMSda deyarli har yili to'lovlar 0,1–0,2 mlrd so'm atrofida qolmoqda,

Boshqa majburiy sug'urta turlari bo'yicha to'lovlar esa teskari yo'nalishda — 2023-yilda 7,7 mlrd so'm bo'lsa, 2024-yilda 4,6 mlrd so'mga pasaygan.

Bu dinamikalar sug'urta bozori hajm jihatidan kengayib borayotganini ko'rsatsa-da, ayrim segmentlarda barqrarlik va ishonchilik muammolini kuchayayotganidan dalolat beradi.

2. OSAGO tarifining o'zgarmasligi va zararlilik muammosi

TVEFJMS (OSAGO) bo'yicha so'nggi besh yil davomida sug'urta mukofoti o'zgarmagan.

Jadval 3. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha 2024 yilning yanvar-dekabr oyi uchun asosiy ko'rsatkichlar hududlar kesimida

Hudud	Tashuvchining sug'urta mahsulotlari soni (mlrd so'm)			Tashuvchining sug'urta mahsulotlari hajmi (mlrd so'm)			Qazinchigiga sug'urta mahsulotlari hajmi (mlrd so'm)			Qazinchigiga sug'urta mahsulotlari surʼumi (mlrd so'm)		
	Jan			Uy			Sagʻ			Jan		
	Jan	Uy	Sagʻ	Jan	Uy	Sagʻ	Jan	Uy	Sagʻ	Jan	Uy	Sagʻ
1. Osiyonliy shahar	3	4	0	0	7	0	0	0	0	12	13	0
2. Osiyonliy viloyati	166 223	3,0%	18,2%	8 802,2	2,2%	18,2%	1137	4,4%	18,2%	18 911,4	4,3%	172,2%
3. Andijon viloyati	569 274	7,1%	38,7%	15 911,7	5,1%	38,5%	673	2,5%	38,0%	18 918,9	2,8%	135,7%
4. Samarkand viloyati	246 623	5,2%	33,0%	13 917,8	4,5%	35,4%	889	3,4%	34,6%	13 246,6	3,7%	105,6%
5. Jizzax viloyati	567 399	0,9%	10,3%	24 354,8	11,1%	18,8%	1014	18,5%	18,4%	38 121,0	13,3%	528,9%
E. Qashqadaryo viloyati	419 175	8,3%	110,0%	23 882,7	7,4%	124,0%	1535	8,9%	125,7%	13 922,8	4,9%	277,3%
F. Navoiy viloyati	136 154	2,7%	10,0%	8 176,0	2,0%	10,1%	495	1,9%	10,4%	4 641,8	1,8%	102,7%
G. Nematoy viloyati	340 491	0,9%	100,0%	18 811,0	0,1%	10,2%	373	1,0%	10,8%	3 326,3	1,0%	116,2%
H. Samarqand viloyati	477 496	8,6%	101,3%	29 644,6	6,1%	102,3%	876	8,8%	104,7%	20 875,6	4,0%	164,0%
I. Surʼondaryo viloyati	266 520	5,1%	107,0%	12 084,7	4,1%	105,0%	487	1,0%	107,0%	4 210,0	1,0%	158,2%
J. Sirdaryo viloyati	136 032	2,7%	121,0%	8 000,0	2,2%	108,1%	421	1,7%	105,0%	3 888,3	1,7%	110,0%
K. Tashkent viloyati	126 659	2,4%	42,0%	8 417,8	1,0%	40,0%	2 807	10,9%	10,0%	24 486,7	11,0%	187,7%
L. Fergana viloyati	446 150	8,8%	103,4%	19 940,0	6,4%	102,7%	396	2,3%	103,0%	13 371,0	3,4%	121,4%
M. Karakalpakkalʼi shahar	282 894	5,2%	104,0%	13 877,9	4,2%	100,0%	622	1,3%	101,0%	8 216,4	2,9%	101,9%
N. Respublika hujaychi, JAMO	3 059 167	100,2%	316 052,0	-	112,1%	31 777	100,0%	100,0%	22 311,6	-	146,2%	

Yuqoridagi jadval orqali ko'rishimiz mumkinki, 2024-yilda 223,5 mlrd so'mlik to'lov amalga oshirilgan bo'lsa, umumiy mukofot miqdori 311,3 mlrd so'mni tashkil etган — bu zararlilik koefitsientining ortib borayotganini anglatadi. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi 122,5%, Toshkent viloyati 290%, bo'lib bu hududlarda to'lovlar mukofotdan oshib ketgan. Yuqori zinchlikka ega hududlar — Toshkent shahri 92% ga yetgan, zinchlik kam bo'lsada Navoiy viloyatida 96,7% Jizzax viloyatida 87,8% Surʼondaryo viloyatida esa bu ko'rsatkich 67,9% ni tashkil etadi. Yuqoridagi jadvalda qoniqtirilgan da'volarga nisbatan zararlilik ko'rsatkichini tabhil qilar ekanmiz, ushbu sug'urta mahsulotini sotish bilan bog'liq marketing xarajatlari agentlarga beriladigan vositachilik haqqi hamda ish yuritish xarajatlari ham borligini unutmashligimiz lozim. Ushbu xarajatlar jami OSAGO bo'yicha yig'ilgan mukofotlarning 30 foiziga yaqin xarajatlarni tashkil etmoqda.

Yuqori zararlilik sharoitida doimiy ravishda past mukofot yig'ilishi sug'urta kompaniyalarining o'z xarajatlarini yopolmaslikka, aktivlar salmog'ini kamaytirishga, to'lovni cho'zish yoki rad etish hollari ortishiga

olib kelmoqda. Bu esa aholida ishonchszilik kayfiyatining kuchayishiga, sug'urtani "faqat majburan rasmiylashtiriladigan" xizmat sifatida qabul qilinishiga olib kelmoqda.

Jadval 4. O'zbekistonda sug'urta mukofotlari tarkibi (2024)



Majburiy sug'urting ulushi va xalqaro taqqesloviy tahsil

Transport parking o'zgarishi va iqtisodiy muvofiqlik bo'yicha ko'rib chiqqadigan bo'lsak:

So'nggi yillarda Toshkent shahrida xorijiy (ayniqsa, Germaniya, Koreya, Xitoy) avtomobillar soni ortib borayotgani (Spot.uz, 2023) va avtomobil bozorining diversifikatsiyasi sug'urta to'lovlarining real narxini oshirib yuborayotganini ko'rsatmoqda. Chunki, OSAGO bo'yicha maksimal to'lov — 40 mln so'm (shundan faqat 14 mln avtomobilning o'zini ta'mirlashga). Ammo, yangi avtomobillarning ehtiyyot qismi va xizmat ko'rsatish narxi 2–3 baravar yuqoriligi sababli bu to'lov real zararlarni qoplamaydi.

Shu sababli aholining sug'urtdan foydalanishga bo'lgan ishonchi yanada pasaymoqda, ayniqsa avvalgi holatlarda to'liq to'lov olmaganlar orasida.

TVEFJMS to'lovlar bo'yicha zararlilik oshmoqda, ayniqsa Toshkent shahri va viloyatida.

Tariflar iqtisodiy asosga emas, me'yoriy chegaralarga tayangan. Sug'urta mukofotlari o'zgarmagan, ammo transport va ta'mirlash xarajatlari ortgan. Shunga qaramay, sug'urta kompaniyalarining raqamlashdirish darajasi sust, da'volarni ko'rib chiqish tizimi markazlashmagan. Ishonch pastligi tufayli aholi sug'urtani ijtimoiy himoya vositasi sifatida emas, "formallik" deb qabul qilmoqda.

2024-yil holatlarga ko'ra, O'zbekistonda yig'ilgan jami sug'urta mukofotlari tarkibida majburiy sug'urta turlari atigi 7% ni tashkil etgan. Diagrammadan ko'rinish turibdiki, asosiy ulush — 90% — ixtiyorli sug'urta turlariga to'g'ri keladi, qolgan 3% esa hayat sug'urtasi tarmog'iga oid majburiy sug'urtasi xizmatlar ulushi bilan cheklanadi.

Xalqaro taqqeslov:

Davlat	Majburiy sug'urting umumiy ulushi (%)	Izoh
Fransiya	25%	Avtomobil, ish joyi, professional javobgarlik
Rossiya	18%	OSAGO, ish beruvchining FJMS, SMR sug'urtasi
Qozog'iston	15%	OSAGO, tibbiy, qurilish, yuk tashish
Turkiya	20%	Avto, uy-joy va yong'in sug'urtasi majburiy
O'zbekiston	7%	Asosan TVEFJMS, ish beruvchining FJMS va tashuvchining fuqarolik javobgarligini sug'uratalash bilan cheklangan.

Xulosa (Выходы/Conclusion)

O'zbekistonda majburiy sug'urting ulushi xalqaro standartlarga nisbatan 2,5–4 baravar past.

Bu ko'rsatkich bozorda yetarlicha yuridik majburiyatlar yo'qligi, mijozlarning ishonchsziligi va tizimning to'liq raqamlashdirilmaganligi bilan izohanlanadi.

Rivojlanchagan mamlakatlarda majburiy sug'urta ijtimoiy xavfsizlik siyosatining bir qismi sifatida qaraladi va raqamlashdirish orqali to'liq nazorat qilinadi.

O'zbekistonda esa ko'plab majburiy turlar (masalan, qurilishda, ekologiyada, profesional faoliyatda) de-fakto ishlamaydi yoki qamrovi nihoyatda past.

O'zbekiston sug'urta bozorida majburiy sug'urta xizmatlari, xususan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash (TVEFJMS) tarmogi so'nggi yillarda o'sish sur'atlarini namoyon etayotgan bo'lsa-da, tizimning funksional samaradorligi va ijtimoiy himoya vositasi sifatidagi rolida muhim kamchiliklar mavjud. Tahillilar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi besh yillikda TVEFJMS mukofotlari ikki barobardan ko'proqqa o'sgan bo'lsa-da, mavjud tariflar inflaytions jarayonlar va ehtiyoj qismlar narxining ortishiga mos tarzda qayta ko'rib chiqilmagan. Shuningdek, zararlilik darajasi ayniqsa Toshkent shahri va viloyatida yuqori bo'lib, sug'urta kompaniyalari moliyaviy jihatdan bosim ostida qolmoqda.

Bundan tashqari, boshqa majburiy sug'urta turlarida, jumladan ish beruvchining va tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda qamrov darajasining pastligi, mukofot hajmaining yildan yilga kamayib borayotgani tizimda real iqtisodiy faollikdan yiroqlikni ko'rsatmoqda. Bu esa, mavjud majburiy sug'urta turlarining aksariyati amaliyotda qog'ozda qolib ketayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, sug'urtaning raqamlashtirilmaganligi, markazlashmagan da'vo ko'rib chiqish tizimi, statistik hisobotlarning noaniqligi va davlat monitoring tizimlarining sustligi fuqarolarning sug'urtaga nisbatan ishonchini pasayishiga olib kelmoqda.

Tahillardan ko'rindiki, O'zbekistonda majburiy sug'urtaning umumiy sug'urta mukofotlari tarkibidagi ulushi 7% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Rossiya, Turkiya va Fransiyaga nisbatan 2,5–3,5 baravar past bo'lib, fuqarolik jamiyatidagi ishonch va ijtimoiy himoya vositasi sifatidagi sug'urta instituti zaifligini ko'rsatadi. Bu esa, aholining sug'urtani faqat "formallik" sifatida qabul qilishi, uni haqiqatda ijtimoiy barqarorlikning kafolati sifatida ko'rmasligidan dalolat beradi.

Majburiy sug'urta tizimini tubdan isloh qilish – bu shunchaki moliyaviy sektorning ichki masalasi emas, balki aholining ijtimoiy himoyasi, iqtisodiy barqarorlik va huquqiy madaniyat darajasining yuksak ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu boisdan, sohadagi mavjud muammolarga yuzaki qarash emas, balki ularni ildizi bilan bartaraf etuvchi qat'iyl, kompleks va amaliy choralar zarur. Quyidagi ilmiy amaliy takliflar aynan shunday yondashuvni nazarda tutadi:

1. Sug'urta tariflariniadolatlavi iqtisodiy asoslangan mexanizm orqali qayta shakllantirish

Bugungi kunda O'zbekistonda amal qilayotgan sug'urta tariflari real iqtisodiy voqelikdan ancha orqada qolmoqda. Aholi va tadbirkorlarning manfaatlarni ishonchli himoya qilish uchun sug'urta mukofotlarini belgilovchi tariflar inflaytsiya, ehtiyoj qismlar bozori va xizmat ko'rsatish xarajatlari dinamikasiga mos ravishda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

2. Davlat miqyosida yagona raqamlashtirilgan da'vo ko'rib chiqish platformasini joriy etish

Byurokratiya, subyektiv yondashuv va korrupsiyon xavflarni yo'q qilishning eng samarali yo'li – bu raqamlashtirishdir. Har bir sug'urta hodisisi bo'yicha da'vo arizasi yagona elektron tizim orqali shaffof tarzda ko'rib chiqilishi, bu tizim "mahalla-kompaniya-davlat" zanjiriga integratsiya qilinishi lozim. Ushbu yondashuv O'zbekistonning "raqamli davlat" kontseptsiyasiga to'liq uyg'un holda, fuqarolarning huquqiy ishonchini tiklaydi.

3. Sug'urta madaniyatini shakllantirish bo'yicha milliy strategik dastur qabul qilish

Aholining sug'urtaga nisbatan ongli munosabatini shakllantirmsandan turib, hech qanday islohot muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun sug'urta madaniyatini oshirish bo'yicha Milliy harakat dasturi ishlab chiqilishi zarur. Bu dastur mifik tab va oliy ta'limdan tortib ommaviy axborot vositalarigacha uzlusiz ta'lim, motivatsion targ'ibot va ijtimoiy innovatsiyalar orqali amalga oshirilishi kerak. Chunki fuqaroga sug'urta – bu majburiyat emas, balki imkoniyat ekanini anglatish bugungi iqtisodiy barqarorlikka erishish yo'lidagi siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan bira bo'lishi kerak.

4. Sug'urta bozoriga kirishni yengillashtirish va raqobat muhitini kuchaytirish

Bozorda sog'lom raqobat bo'lmas ekan, sifati past, sun'iy monopoliyaga ega xizmatlar saqlanib qolaveradi. Shu bois, Prezident tashabbusi bilan raqamli startaplar va insurtech kompaniyalar uchun "regulyativ sandbox" mexanizmini joriy etish, yangi ishtirokchilarga soddalashtirilgan litsenziya tartibini belgilash va davlat-xususiy sheriklik asosida yangi xizmatlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlash lozim. Bu orqali sug'urta bozori zamonaqiy, ilg'or va jozibador ekotizimga aylanadi.

5. Normativ-huquqiy bazani chuqur tahlil qilish va ijro intizomini kuchaytirish

Qonunchilikda ko'zda tutilgan majburiy sug'urta turlarining aksariyati amalda de-fakto ishlamayotgan bo'lsa, bu tizimda mas'uliyat va ijro intizoming yetishmasligini anglatadi. Shu bois har bir qonun ijrosini ta'minlovchi aniq mexanizmlar, monitoring tizimi, axborot ochiqligi va javobgarlik normalari qayta ko'rib chiqilishi zarur. Shundagina davlatning majburiy sug'urta sohasidagi siyosiy irodasi haqiqiy natijaga olib keladi.

Ushbu takliflar nafaqat tizimdag'i mavjud muammolarni hal qilishga, balki O'zbekiston sug'urta bozorini xalqaro standartlarga mos, ishonchli, shaffof va barqaror moliyaviy institutga aylantirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroga, har bir korxonaga aniq va tushunarli himoya mexanizmini yaratish – bu nafaqat iqtisodiy zarurat, balki yangi O'zbekistonning ijtimoiyadolat va barqaror taraqqiyot sari olib borayotgan strategik yo'lini ifoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (Список использованной литературы/ List of References)

- Kurbanov S.A. (2023). O'zbekiston sug'urta bozorining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va strukturaviy o'zgarishlari. – Toshkent: Bank-moliya akademiyasi nashriyoti.
- Kucharov M.B. (2023). O'zbekiston sug'urta bozorining 2016–2023 yillardagi rivojlanish tendensiyalari. // "Moliyaviy Bozorlar" ilmiy-amaliy jurnali.
- Polina-Stashevskaya A.L. (2021). Цифровая трансформация обязательного страхования в России: правовые и практические аспекты. – Москва: FinExpert Publishing.
- Du, M., & Ellis, R. (2024). Access Barriers in Emerging Insurance Markets. – London School of Economics Discussion Papers.
- OECD. (2020). Insurance Regulatory Sandbox: Opportunities and Challenges. – Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org/finance/Insurance-Sandbox.pdf>
- OECD. (2017). Technology and Insurance: The Role of Insurtech in Boosting Inclusion. – Paris: OECD. <https://www.oecd.org/finance/insurtech-2017>
- Swiss Re Institute. (2023). Global Insurance Report: Trends and Risks. – Zurich. <https://www.swissre.com/institute/research/sigma-reports>
- InsuranceSpot.uz (2023). O'zbekiston sug'urta bozori sharhi. – <https://insurance.tsue.uz>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (2023). – <https://president.uz>
- Lex.uz.